"IKKI ESHIK ORASI" ROMANINING G'OYAVIY- BADIIY XUSUSIYATLARI

KIUT maktabga va boshlang'ich ta'lim metodikasi
3- bosqich talabasi **Maxsudova Sevinch Keldiyor qizi**

Annotasiya. Ushbu maqola O'tkir Hoshimov adabiy merosida asosiy o'rinlardan birini egallagan "Ikki eshik orasi" romani haqida. Asarda insonlar taqdiri va inson umrining murakkabligi zo'r mahorat bilan tasvirlangani, tinchlikka rahna solgan urushning qoralangani, uning g'ayriinsoniy mohiyatiga urg'u berilgani, urush voqealarining har bir ota-ona qalbini jarohatlagani, ko'ngillarga ozor yetkazgani romanning umuminsoniy pafosini tashkil etishi haqidagi fikr-mulohazalar aks etadi. Yozuvchi yaratgan obrazlarining mardlik, matonat, insonparvarlik va sabr-bardoshlilik fazilatlari orqali millatning ruhiy takomilini ochishga muvaffaq bo'lgani va ayni shu xususiyatlar bugungi yoshlarimizga ham o'rnak bo'lishi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Ikki eshik orasi,qonli urush, to'qqizta qahramon, Kimsan, Robiya,mardlik, insonparvarlik,Orif oqsoqol,

O'tkir Hoshimov - el ardoqlagan adib, buyuk so'z sanatkori! Adibning barcha asarlari o'zbek va va boshqa qardosh xalqlar mulkiga aylanib ketgan. "Tushda kechgan umrlar", "Ikki eshik orasi", "Nur borki soya bor" romanlari; "Dunyoning ishlari", "Ikki karra ikki - besh ", "Bahor qaytmaydi", " Qalbingga quloq sol" kabi qissalari, yuzdan ortiq dilbar hikoyalari, komediya va fojealari xalq orasida sevib mutolaa qilinadi. Shaxsan o'zim ham O'tkir Hoshimovning asarlarini juda sevib o'qiyman, buning sababi shuki, adib barcha voqea- hodisalarni hayotdan oladi,shu atrofimizdagi biz bilgan, tanigan kishilar qismatini adolatli va xolisona yoritadi.Adib asarlarining umrboqiyligi siri ham shunda bo'lsa ajab emas.

Kitobxon sifatida men adibning "Ikki eshik orasi" romaniga to'xtalmoqchiman. Ushbu roman 1986-yilda nashr etilgan bo'lib, undagi voqealar Toshkent yaqinidagi qishloqlardan birining chorak asrli hayoti haqida hikoya qiladi. Undagi voqealar urush arafalarida boshlanib, urush yillarida va urushdan keyingi davrda davom etadi. 1966-yildagi Toshkent zilzilasi bilan tugaydi. Romanning kompozitsiyasi ham boshqa asarlarga o'xshamaydi.U yetti qismdan iborat, bu qismlar qirq yetti bobdan tashkil topgan. Bu boblar esa qahramonlar tilidan hikoya qilingan. Romandagi voqealar to'qqizta personaj tilidan hikoya qilinadi. Bu tasvir usuli anchayin murakkab, chunki voqealar tarqalib ketishi, ular orasida uzilish ro'y berishi hech gap emas. Ammo muallif asarning oxirigacha "kalavaning uchini qo'ldan chiqazmaydi" natijada romanda muayyan ichki yaxlitlik paydo bo'ladi

"Ikki eshik orasi" romanida voqea Toshkent atrofidagi qishloqlardan birida, asosan, ikkinchi jahon urushi yillarida bo'lib o'tadi. Shu bilan birga, adib asarda o'rni-o'rnida qishloq kishilarining urushdan oldingi va urushdan keyingi hayotidan ham hayajonli lavhalar chizadi. Roman voqeasi Robiya, Qora amma, Kimsan Xusanov, Muzaffar Shomurodov, Munavvar Aliyeva, Ra'no, Umar zakunchi, Olimjon Komilov kabi to'qqizta obraz tilidan hikoyalar tizmasida berilgan. Bu hikoyalar mazmunan bir-biri bilan mahkam bog'langan bo'lib, bir-birini to'ldiradi. Shu tariqa ular romanning bir butun syujetini hosil qiladi. Asarda asosiy obrazlargina emas, balki Rashid, Abzi, Bashor opa, Oysara, Samadov singari epizodik obrazlar ham kitobxon yodida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Asarda sun'iylik yo'q, aksincha ishontirish san'ati kuchli. Adib qaltis, murakkab masalalarni ham, favqulodda topqirlik bilan ishonarli qilib tasvirlaydi. Qora ammaning o'z o'g'li Kimsanning sevgilisi Robiyani ilojsizlikdan Shomurodga to'y qilib uzatishi, Orif oqsoqolning yoshlik qilib yo'ldan ozgan keliniga mardlik bilan adolat qilishi, qismatlari chalkashib ketgan Muzaffar va Munavvar sevgisi tasvirlangan sahifalarda ayniqsa bu hol ochiq ko'rinadi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Muzaffarning urush davri chigalliklari tufayli tirik yetimga aylanishi, ko'p jabr sitamlar tortishi va o'zining tuqqan onasi Ra'no urush to'zonlari Ichida dovdirab yo'ldan toyib hayot so'qmoqlariga kiradi va eriga xiyonat qiladi. Umar zakunchining hiylasiga uchib unga o'ynash bo'ladi. Muallif bu voqealardan muhim ma'naviy xulosa chiqaradi — Umar zakunchi bag'ri toshligi, nopokligi uchun, Ra'noning subutsizligi, o'ylamay ish qilishi, o'z baxtini ardoqlab avaylamagani uchun keyinchalik butunlay baxtsiz bo'lishadi. Ular odamlar nazaridan qolib, iztiroblarga, ruhiy qiynoqlarga to'la hayot kechirishga majbur bo'lishadi. Mening fikrimcha, ular shunga loyiq edilar!!! Ra'noning hamma narsasi bor edi, hattoki umr yo'ldoshi Shomurod uni jonidan ortiq ko'rardi, lekin Ra'no buning qadriga yetmadi.Hatto o‘z eri Shomurod urushdan yarador bo‘lib kelganda hech narsa ko‘rmaganday, sovugan oshdek turmush kechirdi, farzandi Muzaffar qo‘lida, yonida eri bo‘laturib ham yana xiyonat qildi.Ra'no o'z nafsining qurboni bo'ldi. Hattoki dunyodan ko'z yumganida farzandi Muzaffar uni so'nggi yo'lga kuzatish uchun ham bormaydi! Oilaga hiyonat bu — vatanga hiyonat demakdir!

Ikki eshik orasi" romani personajlarga boyligi bilan kitobxonni o'ziga jalb etadi. Ularning orasida Orif oqsoqol, Xusan Duma, Komil tabib kabilar ajralib turadi. Muallif, ayniqsa, Orif oqsoqol obrazini mukammal chizishga muvaffaq bo'lgan. U xalq o'rtasida katta obro'ga ega, eng og'ir damlarda ham odamlarni qiyin ishlarga otlantiroladi. U ko'pgina o'zbek qariyalari kabi tashabbuskor va donishmand. Ayni choqda haqiqatni yuzga aytishdan cho'chimaydigan shartaki, jasoratli odam. U odamlarni baholashda o'z me'yoriga ega — odamning belida belbog'I bo'lishi kerak. Belbog' uning uchun mardlik, tantilik, odamiylik belgisi.Orif oqsoqolning yuksak insoniy xislatlar sohibi ekanini kelini Zuhra o‘g‘lining vafotidan keyin boshqa kishi bilan qochib ketganida xotini Xolposh xola" ilohim u dunyoyu bu dunyo ko‘rsang oqarmasin" deya qarg‘aganda xotinini yupatadi, axir bu ham o‘z qizimizku nega endi o‘g‘lingni o‘ylab,qizingni o‘ylamayapsan deya Zuhrani kechiradi va ularga oq fotiha beradi. Bu hech bir insonning qo‘lidan kelmaydigan mardlik emasmi?!.Bularning hech biri Orif oqsoqol uchun oson kechmaydi, aslida Xolposh xolaning shunchali kuyib yonganicha ham bor edi, axir ular birvarakayiga bir emas ikki norg‘ul o‘g‘lidan judo bo‘lishdi, ammo bunda Zuhra kelinni ham ayblash to‘g‘ri bo‘lmaydi bularning barchasiga o‘sha mudhish urush sababchidir.Insonlar ana shunday og‘ir vaziyatlarda sinaladi, urush nafaqat janggohlarda, balki urush ortidagi insonlarda o‘zining chuqur va falokatli izini qoldirgan edi

Asarda Kimsan Husanov obrazi muvaffaqiyatli chiqqan. U roman voqealarida kam ishtirok etgan bo'lsa ham ikki bobdagi hikoyasi orqali uning tanti, mard,oriyatli, jasur—belida belbog'i bor yigit ekanligini bilishimiz mumkin. U vatani uchun o'z jonini fido etadi.U uylariga taqdir taqozosi bilan kelib qolgan "singlisi" - Robiyani jon- dilidan sevadi, balki falokatli urush bo‘lmaganida ular baxtli hayot kechirgan bo‘larmidi.Axir har ikkisi ham baxtli bo‘lishga loyiq insonlar edi- ku! Dono xalqimiz aytganidek, urush - quyon ovi emas. Kimsan urushda o‘z prinsiplarini o‘zgartirishga majbur bo‘ladi, o‘zini, o‘zligini chuqur anglaydi,bularni seviklisi Robiyaga yozmoqchi bo‘lgan, ammo yozolmagan xatida ko‘rishimiz mumkin. Kimsanga doim yaxshi bo‘lgin,mo‘min - qobil bo‘lgin deya uqtirilgan edi,Kimsan shunday deydi: " Mo‘min- qobil bo‘lish nima degani o‘ng yuzingga ursa, chap yuzingni tut degani,ammo urushda bu yaramaydi,bularni men Farg‘onalik Ergash akani o‘ldirganda o‘nlab yurtdoshlari birdan uning ustiga yopirilib borganida nemislar barchasini osonlikcha otib tashlaganda his qildim.Endi mening ham o‘z prinsipim bor,qonga qon, jonga jon ",- deydi

Romanda ayollar obraziga ham keng o'rin berilgan. Ular ichida, ayniqsa, Qora amma ajralib turadi. Qora amma—mehribon, soda, bardoshli va jafokash ayol. Uning obrazida urush davridagi o'zbek

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

onalarining siymosi tasvirlangan. U boshiga tushgan barcha ko'rgiliklarni sabr-bardosh bilan yengib o'zida yashashga kuch topadi.Qora amma olti farzandini yerga qo'yib, bittagina Kimsanini yer-u ko'kka ishonmasdan katta qildi. Yurtda mudhish urush boshlangach, miq etmay, el-yurt ishiga kamarbasta bo'lsin deb yolg'iz farzandi -Kimsanini urushga kuzatadi. Biroq o'g'li urushdan qaytmaydi, lekin mushtipar ona bu xabarga ishonmaydi. Hattoki, yillar o'tsada unga a'za ochmaydi. Eng qiyin vaziyatlarga tushgan hna aynan Qora amma edi. Bir tomonda jondan aziz ko‘rgan farzandi Kimsan, bir tomonda ko‘z o‘ngida kundan - kunga qurib, qovjirab borayotgan Robiya, bir tomonda esa farzandi bilan yolg‘iz qolgan bittayu bitta ukasi Shomurod, u opa sifatida,ona sifatida har birini o‘ylaydi, har biri uchun qayg‘uradi.U uchun Robiyani Shomurodga uzatishini aytishi ham oson kechmaydi.Ona... bu zotni ta'riflashga til ojizdir!

Romandagi yana bir ayol obrazi bu - Robiya. Afsuski, unga ham taqdir kulib boqmadi. Yoshligida onasidan yetim qoladi va otasi tarbiyasida ulg'ayadi. Robiya juda aqlli, matonatli, go'zal bir o'zbek qizi sifatida asarda tasvirlanadi. Urush tugaganiga bir necha yil bo'lsada, sevgilisi Kimsanni sadoqat bilan kutishda davom etadi. Ammo... Ammo taqdirning gardishi bilan u o'zining tutungan tog'asiga" ada" deya katta bo‘lgan kishisiga turmushga chiqishga majbur bo'ladi.U bularning barchasiga begunoh go‘dak - Muzaffarni o‘ylab rozi bo‘ladi ,ammo o‘z seviklisi Kimsanni bir dam yodidan chiqarmaydi.Ra'noning qilgan nomaqul ishlari uchun Robiya jabr chekadi. U sabrli,mehribon, irodali o'zbek ayoli sifatida barchaga na'muna bo'la oladi. Asarni o‘qish jarayonida o‘zim qahramonlar qismatiga achinib yig‘ladim, urushning naqadar baloyi ofat ekanini chin yurakdan his qildimva bugungi o‘tayotgan tinch,osuda kunlarim uchun Ollohga ming bora hamdlar aytdim va o‘yladimki, hech bo‘lmasa Kimsan urushdan qaytib kelsa bo‘lmasmidi!,mayib - majruh bo‘lsada mayliga edi. Shunda...shunda bechora Robiya ham baxtli bo‘larmidi,balki Qora ammaning ham g‘am- tashvishlari yengilroq bo‘larmidi!!! Axir shusiz ham Robiyaning chekkan dard- u hasratlari ozmidi!, axir Robiya ham Kimsan ham baxtli bo‘lishga haqli edi-ku, Muzaffar- chi?!,Munavvar- chi?! ularda nima gunoh !!! Bu asarni o‘qigan har bir kitobxonda bu kabi savollar va dard- alamlar ko‘p edi.Lekin kitobxon sifatida ham bir narsani tan olishimiz kerakki, urush qurbonsiz bo‘lmaydi,urush- quyon ovi emas , urush o‘yin ham emas !!! . Urush o‘z nomi bilan urush!

Romanda urushning jamiki og'irliklarini, marhumlarini azamat yelkasida ko'targan, o'zi yemay barchasini jangchilar og'ziga tutgan fidoyi dehqonlar jasorat madh qilingan. Nikoh kechasini ertasigayoq kuyovini jangga jo'natib, o'zlari kelinlik liboslarini ish kiyimiga almashtirib og'ir va mashaqqatli mehnatlari, ota o'rniga ketmon ko'tarib dalaga chiqqan go'daklar, o'g'li o'rniga yer chopgan chol-u kampirlar ko'z o'ngingizda paydo bo'ladi. Siz ularning ovozini eshitasiz. Ularning qaddini tik ushlab turgan kuch g'alabaga ishonch edi. Urush yillarida chol-kampirlar ko'zlari nigoron bo'lib,jigargo'dshalarini tonggacha duo qilib chiqqanlari ko'z oldingizga keladi...Ochlik, yupunlik, ayriliqlar, erta hazon bo'lgan muhabbat alamlari, judoliklar, qarg'ish, yig'i, g'azab - hamma-hammasi romanda nihoyatda ishonarli tasvirlangan.Shu o'rinda ijodkorning mashhur jumlasini aytmoqchiman "Hamisha bir orzu bilan yashayman. Shunaqa kitob yozsangki, uni o'qigan kitobxon hamma narsani unutsa, asar qahramonlari hayoti bilan yashasa. Kitobni o'qib bo'lgan kuni kechasi bilan uxlolmay, to'lg'onib chiqsa. Oradan yillar o'tib asarni qo'liga qayta olganida tag'in hayajonlansa, yangi ma'nolar topsa. Eng katta orzuyim shu... " deb yozadi sevimli adibimiz, O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov.Mening nazarimda adib bunga erishgan ham, chunki adibning har bir asarini o‘qigan kitobxon ana shunday ruhiy qiynoqlar girdobida qoladi, chuqur o‘yga toladi va yana shu asarni qayta qo‘lga olganida yana shunday o‘ylar girdobiga tushadi.Sevimli adibimizning asarlari umrboqiyligining sababi ham shundadir.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati
1.O'tkir Hoshimov " Ikki eshik orasi" Toshkent 2023.
2. Vikipediya.uz

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.